


## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019 yil 1 fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 963 ta korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 665 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3290 ta (17,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21971 tani tashkil etgan.












Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2906	2845	157
 Sanoat	2729	2688	200
 Qurilish	2732	2675	90
 Savdo	5245	5148	348
 Tashish va saqlash	803	790	22
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	942	923	56
 Axborot va aloqa	259	248	8
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	507	504	9
 Boshqa turlari	6286	6150	73



### Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 fevral holatiga 22409 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,4 % savdo, 13,0 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 12,2 % qurilish, 12,2 % sanoat, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 28,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4799 ta), Koson (1835 ta), Chiroqchi (1811 ta) va Qarshi (1691 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (708 ta), Nishon (809 ta) hamda Kasbi (834 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, mingda.**





## ✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 21971 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3290 ta (17,6 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,4 % savdo, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,2 % sanoat, 12,2 % qurilish, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 28,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4603 ta), Koson (1815 ta), Chiroqchi (1791 ta), Qarshi (1672 ta) va Kitob (1562 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (704 ta), Nishon (802 ta) hamda Muborak (814 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.02.2017 y.

• 18233 ta

01.02.2018 y.

• 18681 ta

01.02.2019 y.


• 21971 ta



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvar oyida 963 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 23,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri (138 ta), Chiroqchi (99 ta), Kasbi (86 ta) va Kitob (80 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muborak (21 ta), Dehqonobod (37 ta) hamda Koson (37 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (348 ta), sanoat (202 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (157 ta) va qurilish (90 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (9 ta) hamda tashish va saqlash (22 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>278</b>	<b>100</b>	<b>298</b>	<b>100</b>	<b>963</b>	<b>100</b>
Savdo	71	25,5	48	16,1	348	36,1
Sanoat	54	19,4	52	17,4	200	20,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	71	25,5	41	13,8	157	16,3
Qurilish	31	11,2	45	15,1	90	9,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	4,7	16	5,4	56	5,8
Tashish va saqlash	10	3,6	6	2,0	22	2,3
Axborot va aloqa	4	1,4	5	1,7	8	0,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,4	6	2,0	9	0,9
Boshqa turlari	23	8,3	79	26,5	73	7,6

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**








## TIJORAT KORXONALAR

2019 yil 1 fevral holatiga 17388 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7654 ta, oilaviy korxonalar – 774 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8447 ta va boshqalar 513 tani tashkil etgan.


### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 90 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 63,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 67 tasi qo'shma korxonalar, 23 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (27 ta yoki jami ulushi 29,7 %), Kitob tumani (10 ta yoki 11,0 %) va Qamashi tumanlari (9 ta yoki 9,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirishkor tumani (1 ta yoki 1,1 %), Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari (2 ta yoki 2,2 %), Nishon, Kasbi, Shahrisabz tumanlari (3 ta yoki 3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 52 tani (57,8 %), savdoda 13 tani (14,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 4 tani (4,4 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (1,1 %), tashish va saqlashda 2 tani (2,2 %), qurilishda 4 tani (4,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10 tani (11,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (4,4 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 6 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 2 ta, Belorussiya Respublikasi va Eron Islom Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta), qurilish (1 ta), savdo (1 ta) va (1 ta) boshqa turdagi xizmatlar ko'satish hissasiga to'g'ri keladi.





## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 17234 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019 yil 1 fevral holatiga qaraganda 18,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3772 tasi (21,9 %) Qarshi shahri, 1455 tasi (8,4 %) Koson, 1389 tasi (8,1 %) Qarshi, 1382 tasi (8,0 %) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17234 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5114 tasi (29,7 %) – savdo, 2810 tasi (16,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2650 tasi (15,4 %) - qurilish, 2646 tasi (15,4 %) - sanoat, 909 tasi (5,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 773 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 373 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 244 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1715 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





2019 yil yanvar oyida 913 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 98,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (132 ta), Chiroqchi (91 ta), Kasbi (83 ta) va Kitob tumanlari (80 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (20 ta), Dehqonobod (35 ta) hamda Koson (35 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (340 ta), sanoatda (200 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (156 ta), qurilishda (89 ta) va tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda tashish va saqlashda (22 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 790 tani tashkil etib, ulardan 774 tasi yoki 98,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,3 % yoki 227 tasi sanoat, 18,9 % yoki 146 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 18,9 % yoki 146 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,8 % yoki 130 tasi savdo, 2,6 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,9 % yoki 15 tasi qurilish, 1,3 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 10,0 % yoki 78 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oyida jami 96 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -37 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2017 yilda 71 ta, 2018 yilda 59 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019 yilning yanvar oyida ushbu ko'rsatkich 96 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan -37 taga tugatish kamaygan.*

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 96 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 20 tasi (20,8 %) savdo, 17 tasi (17,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi hamda qurilish, 16 tasi (16,7 %) sanoat, 2 tasi (2,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (1,0 %) axborot va aloqada hamda 23 tasi (24,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>59</b>	<b>100,0</b>	<b>96</b>	<b>100,0</b>	<b>37</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6	10,2	17	17,7	11
sanoat	5	8,5	16	16,7	11
qurilish	11	18,6	17	17,7	6
savdo	22	37,3	20	20,8	-2
tashish va saqlash	2	3,4	-	-	-2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	2	2,1	2
axborot va aloqa	-	-	1	1,0	1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1,7	-	-	-1
boshqa turlari	12	20,3	23	24,0	11

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2019 yil yanvar oyida 86 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 32 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 20 tasi (23,3%) savdo, 17 tasi (19,8 %) qurilishda, 17 tasi (19,8 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 16 tasi (18,6 %) sanoat, 2 tasi (2,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (1,2 %) axborot va aloqada hamda 13 tasi (15,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan G'uzor tumanida -6 ta, Dehqonobodda -3 ta, Kitobda -8 ta hamda Muborak tumanida -3 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.



**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:71-230-84-10 (11)**  
**Tel.:75-221-17-93**